



QALAMTASVIR TEXNIKASINING TARIXIY RIVOJLANISHI VA ZAMONAVIY SAN'ATDAGI O'RNI

Tohirova Munisa To'ra qizi

Guliston davlat pedagogika instituti,

Tasviriy san'at va muhandislik grafikasi ta'lim yo'nalishi 1-kurs talabasi

Annotatsiya: mazkur maqolada qalamtasvir texnikasining tarixiy rivojlanish jarayoni hamda uning zamonaviy tasviriy san'atdagi o'rni tahlil qilinadi. Qalamtasvirning shakllanish bosqichlari, uning badiiy ifoda vositalari va tasviriy san'at ta'limidagi ahamiyati yoritib beriladi. Shuningdek, qalamtasvir texnikasining rassom ijodiy tafakkurini rivojlantirishdagi roli ham ilmiy jihatdan asoslab beriladi.

Kalit so'zlar: qalamtasvir, grafika, tasviriy san'at, chiziq, shtrix, yorug'lik va soya, grafit qalam, badiiy ta'lim, tasviriy tafakkur, kompozitsiya.

HISTORICAL DEVELOPMENT OF PENCIL DRAWING TECHNIQUE AND ITS ROLE IN MODERN ART

Tahirova Munisa Tora kizi

Gulistan State Pedagogical Institute,

1st-year student, Visual Arts and Engineering Graphics major

Abstract: this article analyzes the historical development of pencil drawing techniques and their role in modern visual art. The study examines the stages of formation of pencil drawing, its artistic expressive means, and its importance in visual art education. In addition, the role of pencil drawing in developing artists' creative thinking and professional skills is scientifically highlighted.



Keywords: painting, artistic expression, color, composition, art history, theoretical foundations, aesthetic thinking.

Qalamtasvir tasviriy san'atning eng qadimiy va fundamental yo'nalishlaridan biri bo'lib, u tekis yuzada chiziq, shtrix, nuqta hamda yorug'lik-soya munosabatlari orqali badiiy tasvir yaratish jarayonini ifodalaydi. Ushbu san'at turi nafaqat tasviriy ifoda vositasi sifatida, balki rassomning badiiy tafakkuri, kuzatuvchanligi va kompozitsion fikrlashini shakllantiruvchi muhim nazariy-amaliy asos sifatida ham namoyon bo'ladi. Tasviriy san'at amaliyotida qalamtasvir ko'pincha barcha ijodiy jarayonlarning boshlang'ich bosqichi sifatida qaraladi, chunki aynan shu bosqichda shakl, proporsiya, hajm, fazoviy muhit, perspektiva hamda yorug'lik va soya o'rtasidagi munosabatlar chuqur o'rganiladi [1:12]. Shu bois qalamtasvir san'ati rassomning tasviriy tafakkurini rivojlantirishda, badiiy kuzatuvchanligini oshirishda hamda kompozitsion yechimlarni shakllantirishda muhim pedagogik ahamiyatga ega hisoblanadi.

Tarixiy manbalar tahlili shuni ko'rsatadiki, qalamtasvir san'ati insoniyatning dastlabki badiiy faoliyati bilan chambarchas bog'liq holda shakllangan. Qadimgi davrlarda insonlar turli tabiiy materiallardan – ko'mir, tuproq pigmentlari va mineral bo'yoqlardan foydalanib, g'or devorlariga sodda tasvirlar chizganlar. Bu jarayon dastlab ibtidoiy kommunikatsiya va tasviriy ifoda vositasi sifatida yuzaga kelgan bo'lsa-da, vaqt o'tishi bilan u badiiy tafakkur va estetik qarashlarning shakllanishiga xizmat qilgan muhim madaniy hodisaga aylangan [2:18]. Arxeologik topilmalar va san'atshunoslik tadqiqotlari shuni ko'rsatadiki, qadimgi jamiyatlarda chiziq orqali tasvir yaratish inson tafakkurining vizual ifodasini namoyon etuvchi dastlabki badiiy shakllardan biri bo'lgan.

San'at tarixida qalamtasvir texnikasining rivojlanishi turli davrlar va madaniyatlar bilan bog'liq holda bosqichma-bosqich takomillashib borgan.



Xususan, antik davr va o'rta asrlar san'atida chiziq orqali tasvir yaratish muhim o'rin tutgan bo'lsa, Uyg'onish davriga kelib ushbu san'at turi yanada mukammal ilmiy asosga ega bo'ldi. Bu davrda rassomlar inson anatomiyasi, perspektiva qonuniyatlari hamda fazoviy tasvir muammolarini ilmiy asosda o'rganishga kirishdilar. Natijada qalamtasvir nafaqat tasvir yaratishning texnik vositasi, balki badiiy tafakkurni rivojlantiruvchi ilmiy-amaliy metod sifatida ham shakllandi [11:176]. Rassomlar qora bo'r, sangina, kumush qalam kabi vositalardan foydalanib, shakl va hajmni aniq ifodalashga erishdilar. Keyinchalik grafit qalamning paydo bo'lishi qalamtasvir texnikasining yanada keng rivojlanishiga imkon yaratdi.

XVI asr oxirlaridan boshlab grafit asosidagi chizish vositalarining keng qo'llanilishi qalamtasvir san'atining texnik imkoniyatlarini sezilarli darajada kengaytirdi. Grafit qalam yordamida chiziqning aniqligi, shtrixlarning xilma-xilligi hamda yorug'lik-soya munosabatlarini yanada nozik ifodalash imkoniyati paydo bo'ldi. Natijada qalamtasvir rassom ijodining muhim tarkibiy qismi sifatida shakllanib, badiiy kompozitsiya yaratish jarayonida muhim vositaga aylandi [3:24]. Bu jarayon tasviriy san'at nazariyasida chiziq va shtrix orqali hajm va fazoni tasvirlash usullarining rivojlanishiga ham katta ta'sir ko'rsatdi.

Tasviriy san'at nazariyasida qalamtasvirning ahamiyati shundaki, u rassomga tabiatdagi shakllarni tahlil qilish, ularning proporsional tuzilishini aniqlash hamda fazoviy muhitdagi o'rnini to'g'ri tasvirlash imkonini beradi. Chiziq, nuqta va shtrix orqali yaratilgan tasvirlar yordamida rassom predmetlarning konstruktiv tuzilishini aniqlab, ularning hajmiy ifodasini hosil qiladi [1:37]. Bu jarayon tasviriy tafakkur, fazoviy tasavvur hamda kompozitsion fikrlashni rivojlantirishga xizmat qiladi. Shu jihatdan qalamtasvir san'ati tasviriy san'at ta'limining muhim metodik asoslaridan biri sifatida qaraladi.

Badiiy ta'lim tizimida qalamtasvir mashg'ulotlari talabalarning estetik didini shakllantirish, kuzatuvchanligini rivojlantirish hamda tasviriy tafakkurini boyitishda muhim pedagogik vosita sifatida namoyon bo'ladi. Ayniqsa, shakl, proporsiya,



yorug'lik va soya munosabatlarini o'rganish jarayonida qalamtasvir amaliy mashg'ulotlari muhim rol o'ynaydi. Mazkur jarayon o'quvchilarning fazoviy tafakkurini rivojlantirib, tasviriy ifoda vositalaridan ongli foydalanish ko'nikmalarini shakllantiradi [9:6]. Shuningdek, qalamtasvir orqali o'quvchilar predmetlarning konstruktiv tuzilishini anglab yetish, kompozitsion muvozanatni saqlash hamda badiiy tasvir yaratishning nazariy asoslarini amaliy jihatdan o'zlashtirish imkoniyatiga ega bo'ladilar.

Zamonaviy tasviriy san'at rivoji jarayonida yangi texnologiyalar, raqamli grafika hamda multimedia vositalari keng qo'llanilayotgan bo'lsa-da, qalamtasvir o'zining nazariy va amaliy ahamiyatini saqlab qolmoqda. Raqamli san'at, grafik dizayn, illyustratsiya hamda animatsiya kabi zamonaviy badiiy yo'nalishlarda ham tasvir yaratish jarayoni ko'pincha aynan qalamtasvir eskizlari bilan boshlanadi. Bu esa qalamtasvirning badiiy fikrni shakllantirishdagi asosiy bosqich sifatidagi ahamiyatini yana bir bor tasdiqlaydi [4:21]. Shu bilan birga, zamonaviy rassomlar qalamtasvir texnikasidan foydalanib, turli eksperimental uslublar hamda yangi badiiy ifoda shakllarini yaratishga intilmoqdalar.

Ilmiy tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, qalamtasvir texnikasi faqat tasviriy san'at amaliyotida emas, balki pedagogik jarayonda ham muhim metodik vosita sifatida qo'llaniladi. Tasviriy san'at darslarida qalamtasvir mashg'ulotlari o'quvchilarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish, estetik tafakkurini boyitish hamda badiiy didini shakllantirishda samarali vosita hisoblanadi. Ayniqsa, kompozitsiya, rangtasvir va grafika fanlarini o'rganish jarayonida qalamtasvir asosiy tayanch bosqich sifatida xizmat qiladi [12:94]. Bu jarayon talabalarning ijodiy kompetensiyalarini rivojlantirishga ham ijobiy ta'sir ko'rsatadi [14:3]. Qalamtasvir texnikasining tarixiy rivojlanishini tahlil qilish shuni ko'rsatadiki, ushbu san'at turi insoniyat madaniy taraqqiyotining ajralmas qismi sifatida shakllangan. Qadimgi davrlardan boshlab chiziq orqali tasvir yaratish jarayoni san'atning turli shakllarida namoyon bo'lib, vaqt o'tishi bilan murakkab badiiy



tizimga aylangan. Turli materiallar – ko‘mir, sangina, qora bo‘r, grafit qalam va boshqa chizish vositalarining paydo bo‘lishi qalamtasvir texnikasining rivojlanishiga katta ta‘sir ko‘rsatdi [2:42]. Ushbu vositalar rassomlarga shakl va hajmni yanada aniq ifodalash, yorug‘lik-soya munosabatlarini chuqur tasvirlash hamda kompozitsion muvozanatni yaratish imkonini berdi.

Natijada qalamtasvir faqat tayyorgarlik bosqichi sifatida emas, balki mustaqil badiiy asar yaratish imkoniyatiga ega bo‘lgan san‘at turi sifatida ham shakllandi. Ko‘plab rassomlar qalamtasvir orqali yuqori badiiy qiymatga ega bo‘lgan grafik asarlar yaratib, ushbu san‘at turining estetik imkoniyatlarini namoyon etdilar. Shu jihatdan qalamtasvir san‘ati tasviriy san‘atning muhim nazariy va amaliy asoslaridan biri sifatida e‘tirof etiladi.

Tasviriy san‘at nazariyasi va amaliyotida qalamtasvir texnikasi nafaqat tasvir yaratish vositasi, balki badiiy tafakkur va ijodiy kompetensiyalarni rivojlantirishga xizmat qiluvchi muhim pedagogik omil sifatida ham qaraladi. Zamonaviy ilmiy tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, tasviriy san‘at darslarida qalamtasvir mashg‘ulotlarini tizimli ravishda tashkil etish talabalarning estetik didini shakllantirish, badiiy tasavvurini kengaytirish hamda ijodiy yondashuvini rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Xususan, tasviriy san‘atning dekorativ yo‘nalishlari, rangtasvir va kompozitsiya fanlari bilan uzviy bog‘liq holda olib borilgan qalamtasvir mashg‘ulotlari o‘quvchilarning tasviriy ifoda vositalarini chuqurroq anglashiga yordam beradi. Shu jihatdan qaralganda, qalamtasvir texnikasi badiiy ta‘lim jarayonining muhim metodik asosi hisoblanadi [5:28]. San‘atshunoslik tadqiqotlarida rang va badiiy obrazlarning inson ongiga ta‘siri ham alohida o‘rganilgan. Mazkur tadqiqotlarga ko‘ra, tasviriy san‘at mashg‘ulotlari jarayonida ranglar va tasviriy obrazlardan foydalanish o‘quvchilarda estetik qarashlarning shakllanishi, milliy qadriyatlarga hurmat va vatanparvarlik tuyg‘ularining rivojlanishiga ham xizmat qiladi. Bu jarayonda qalamtasvir muhim tayanch bosqich bo‘lib, u orqali talabalarda predmetlarning shakli, kompozitsion tuzilishi hamda



badiiy obrazning asosiy konstruktiv jihatlarini shakllantiriladi [7:3]. Shuningdek, tasviriy san'at nazariyasida natyurmort kompozitsiyasini yaratish jarayoni ham qalamtasvir bilan chambarchas bog'liq hisoblanadi. Kompozitsion tuzilmani shakllantirishda dastlab qalamtasvir eskizlari yaratiladi, ular orqali predmetlarning fazoviy joylashuvi, proporsional nisbatlari hamda kompozitsion muvozanati aniqlanadi. Ayniqsa, gulli natyurmort kompozitsiyalarini yaratishda chiziq va shtrix yordamida shakl va hajmi aniqlash muhim bosqich hisoblanadi [8:114]. Mazkur jarayon rassomga tasviriy elementlar o'rtasidagi o'zaro munosabatlarni aniqlash hamda kompozitsiyaning badiiy yaxlitligini ta'minlash imkonini beradi.

Tasviriy san'at ta'limida qalamtasvir mashg'ulotlari bilan bog'liq yana bir muhim jihat bu badiiy to'garaklar va ijodiy mashg'ulotlarning tashkil etilishidir. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, tasviriy san'at to'garaklari jarayonida qalamtasvir texnikasidan foydalanish o'quvchilarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish, tasviriy tafakkurini boyitish hamda mustaqil ijodiy faoliyatga bo'lgan qiziqishini oshirishda muhim rol o'ynaydi. Bu jarayonda o'quvchilar turli grafik mashqlar orqali chiziq, shtrix, yorug'lik va soya munosabatlarini amaliy jihatdan o'zlashtiradilar [10:41]. Shu bilan birga, zamonaviy pedagogik tadqiqotlar qalamtasvir mashg'ulotlarining o'quvchilarda ijodiy kompetensiyalarni shakllantirishdagi ahamiyatini ham alohida ta'kidlaydi. Tasviriy san'at o'qituvchilarining kasbiy mahoratini rivojlantirishda ham qalamtasvir texnikasini chuqur o'rganish muhim omil hisoblanadi. Chunki ushbu texnika orqali o'qituvchilar talabalarga tasviriy san'atning asosiy qonuniyatlarini izchil va tizimli ravishda o'rgata oladilar. Natijada o'quvchilarda mustaqil fikrlash, badiiy tahlil qilish hamda ijodiy yondashuv ko'nikmalari shakllanadi [14:4]. Shuningdek, pedagogik tadqiqotlarda Sharq mutafakkirlarining estetik qarashlari ham tasviriy san'at ta'limining muhim nazariy manbalaridan biri sifatida e'tirof etiladi. Ularning estetik qarashlarida go'zallik, uyg'unlik va badiiy ifoda masalalariga alohida e'tibor qaratilgan bo'lib, bu g'oyalar zamonaviy tasviriy san'at ta'limi metodikasida ham



muhim ahamiyatga ega. Xususan, estetik tarbiya jarayonida tasviriy san'at, jumladan qalamtasvir mashg'ulotlari o'quvchilarning ma'naviy va madaniy rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi [15:9]. Shu tariqa, qalamtasvir texnikasi nafaqat tasviriy san'atning nazariy va amaliy asoslarini o'zida mujassam etgan muhim san'at turi, balki badiiy ta'lim jarayonida ijodiy tafakkur, estetik did va professional mahoratni shakllantirishga xizmat qiluvchi muhim pedagogik vosita sifatida ham namoyon bo'ladi. Mazkur jihatlar qalamtasvir texnikasining zamonaviy tasviriy san'at hamda ta'lim tizimidagi ahamiyatini yanada oshiradi.

Xulosa qilib aytganda, qalamtasvir tasviriy san'atning eng muhim va fundamental yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Uning tarixiy rivojlanishi insoniyatning estetik qarashlari, badiiy tafakkuri hamda madaniy merosi bilan chambarchas bog'liqdir. Qalamtasvir orqali rassomlar shakl, proporsiya, hajm, perspektiva hamda yorug'lik-soya munosabatlari kabi tasviriy san'atning muhim qonuniyatlarini chuqur o'zlashtiradilar. Shu bilan birga, qalamtasvir zamonaviy san'at jarayonida ham o'zining nazariy va amaliy ahamiyatini saqlab qolmoqda. U rassomlar ijodida yangi g'oyalarni shakllantirish, badiiy izlanishlarni amalga oshirish hamda professional mahoratni rivojlantirishda muhim vosita sifatida xizmat qiladi. Shu sababli qalamtasvir texnikasini ilmiy jihatdan o'rganish, uning nazariy asoslarini chuqur tahlil qilish hamda badiiy ta'lim jarayonida samarali qo'llash tasviriy san'at rivoji uchun muhim ahamiyat kasb etadi.

ADABIYOTLAR \ REFERENCES:

1. Boymetov B. "Qalamtasvir". Darslik 1-qism.- Toshkent, 2006.
2. Muratov X.X. "Qalamtasvir", Toshkent, Ijod-print, 2020.
3. Nusharov B.B., Usmanov B.A. "Chizmatasvir". O'quv qo'llanma. Guliston, 2023.



4. Jumaboyev, N. P. "Rangtasvir.“.” Ilm Ziyo Zakovat” Toshkent-2023.
<https://unilibrary.uz/literature/822027>
5. R.Z.Xayrov, Dekorativ rangtasvir. Guliston, 2022.
6. Inoyatov O. S. NUQTA VA TO ‘G ‘RI CHIZIQLARNING PERSPEKTIVADAGI TASVIRI: GEOMETRIK MODELLASHTIRISHNING NAZARIY VA AMALIY ASOSLARI //SHOKH LIBRARY. – 2026. – T. 1. – №. 1.
7. Alimjanovna Y. S. et al. PEDAGOGICAL POTENTIAL OF COLORS AND ARTISTIC IMAGES IN DEVELOPING PATRIOTIC SPIRIT AMONG STUDENTS DURING FINE ARTS CLASSES //SHOKH LIBRARY. – 2025. – T. 1. – №. 13.
8. Alimjanovna Y. S. et al. GULLI NATYURMORT KOMPOZITSIYASINING NAZARIY ASOSLARI VA BADIY XUSUSIYATLARI //CONFERENCE OF INNOVATIVE HORIZONS IN SCIENCE & ENGINEERING. – 2025. – T. 1. – №. 2. – С. 112-117.
9. Имомов Ф. CHIZMACHILIK FANINING O ‘QUVCHILARNING SHAXSIY RIVOJIGA TA’SIRI //Свет науки. – 2025. – №. 10 (45).
10. Yusupova, Sh A. "Sh. A. Yusupova TASVIRIY SANAT TOGARAKLARINING USLUBIY." (2023).
11. Alimjanovna Y. S. et al. THE TRANSITION OF GEOMETRY FROM ART TO ENGINEERING GRAPHICS IN THE RENAISSANCE //Global Science Review. – 2025. – T. 7. – №. 1. – С. 174-181.
12. Alimjanovna Y. S., Rayimjonovna R. O. Methodology of teaching compositional image creation in fine arts lessons at general secondary schools //European International Journal of Pedagogics. – 2025. – T. 5. – №. 01. – С. 92-96.
13. Xusnidin o‘g‘li, Xatamjonov Islombek, and Jumaboyev Nabi Pardaboyevich. "KOMPOZITSIYA FANIDA INNOVATSION PEDAGOGIK



TEKNOLOGIYALARNI QO ‘LLASHNING ILMIY-NAZARIY ASOSLARI."
CONFERENCE OF INNOVATIVE HORIZONS IN SCIENCE &
ENGINEERING. Vol. 1. No. 2. 2025.

14. Pardaboevich, Jumaboev Nabi. "DEVELOPMENT OF CREATIVE COMPETENCIES AS THE FOUNDATION OF PROFESSIONAL GROWTH FOR VISUAL ARTS TEACHERS. Zenodo." 2025,
15. Pardaboevich, Jumaboev Nabi. "Interpretation of the Problem of Educational use of Aesthetic Views of Eastern Thinkers in Pedagogical Research." Emergent: Journal of Educational Discoveries and Lifelong Learning (EJEDL) 3 (2024): 9-9.